



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI RAISINING B U Y R U G ' I

2024 yil « 17 » oktabr

219 -son

### **“Bo‘lajak sud xodimlari” klubi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida**

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari bilan bir qatorda sudlar apparatlari uchun meritokratiya tamoyili asosida eng munosib nomzodlarni qidirish, tanlash va ishga jalg qilish, yuqori malakali, professional kadrlar korpusini shakllantirish hamda bu borada yuridik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish ishlari jadal olib borilmoqda.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, kadrlar seleksiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar, ayniqsa, bo‘lajak huquqshunoslar o‘rtasida sudlarning nufuzini yanada oshirish hamda oliy ta’lim muassasalaridagi yuridik ta’limning amaliyot bilan uzviyligini ta’milash maqsadida, shuningdek, “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 30-moddasiga muvofiq

### **B U Y U R A M A N:**

#### **1. Quyidagilar:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Namangan davlat universiteti hamda Farg‘ona davlat universiteti bilan yuridik kadrlarni tayyorlash sohasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida Memorandumlar imzolaganligi;

tajriba-sinov tariqasida hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Bo‘lajak sud xodimlari” klubi faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi;

“Bo‘lajak sud xodimlari” klubi doirasida mingdan ziyod talaba-yoshlar respublika sudlarida tanishuv hamda malakaviy amaliyotlarini muvaffaqiyatli o‘taganligi va buning natijasida sudlardagi oliy ma’lumotli kadrlar yetishmovchiligiga tezkorlik bilan barham berilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi “Bo‘lajak sud xodimlari” klubi (keyingi o‘rinlarda – Klub) to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kadrlar boshqarmasi (M. Muxitdinov) viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari bilan birlashtirilgan:

doimiy ravishda sudlar apparatlari uchun nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega iqtidorli hamda oliy ta’lim muassasalarida o‘qish davrida yuqori natijalarga erishgan yoshlardan iborat kadrlar zaxirasini shakllantirish, shuningdek potensial nomzodlarni o‘qish davridan boshlab qo‘llab-quvvatlash va ular o‘rtasida sudlardagi mehnat faoliyati jozibadorligini targ‘ib qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish choralarini ko‘rsin;

Klubga a’zo bo‘lgan talaba-yoshlarning sudlarda amaliyot o‘tashlari va ish o‘rganishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni ochiq tanlovlardan asosida sudlarning kadrlar zaxirasiga kiritilishi hamda keyinchalik boshqaruv lavozimlariga ishga faol jalb qilinishini ta’minlasin.

4. Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar raislari:

doimiy ravishda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash hamda hamkorlik ko‘lamini ehtiyojlardan kelib chiqqan holda kengaytirish yuzasidan Kadrlar boshqarmasiga takliflar kiritib borsin;

Klub doirasida sudlarda amaliyot o‘tayotgan talabalar o‘rtasida kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish hamda xizmat sirini saqlashga qaratilgan uchrashuvlar, seminar va tushuntirish ishlarini tizimli ravishda tashkil etib borsin;

Klubga a’zo bo‘lgan iqtidorli yoshlarni, shu jumladan amaliyot davrida o‘zining fidoyi mehnati, ishga bo‘lgan qiziqishi va erishgan yutuqlari bilan tengdoshlari orasida namuna bo‘lgan talabalarni munosib rag‘batlantirib borsin.

5. Ushbu buyruq bajarilishini nazorat qilish Oliy sud raisining birinchi o‘rinbosari – jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati raisi I. Muslimov zimmasiga yuklansin.

Oliy sud raisi



B. Islamov

Oliy sud raisining  
2024-yil "17" oktabr-dagi  
219 -son buyrug'iga  
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi  
"Bo'lajak sud xodimlari" klubi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining kadrlar siyosati hamda yuridik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rnlarda – oliy ta'lim muassasalari) bilan o'rnatilgan kelishuvlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi va sirtqi ta'lim shakli bo'yicha tahsil olayotgan 2–4-kurs (magistratura bosqichi) talabalarining o'quv yili davomida o'qishdan bo'sh vaqtida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi (bundan buyon matnda Oliy sud deb yuritiladi) tizimida tanishuv (malakaviy) amaliyoti va ish o'rganish jarayonlarini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. "Bo'lajak sud xodimlari" klubining (bundan buyon matnda Klub deb yuritiladi) faoliyati oliy ta'lim muassasalari talabalarini yo'nalishi bo'yicha kasbga tayyorlash, talabalarda bosqichma-bosqich sud faoliyatiga oid professional ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek sudlar apparatlari uchun nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan iqtidorli hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qish davrida yuqori natijalarga erishgan yoshlardan iborat kadrlar zaxirasini shakllantirishga yo'naltirilgan.

3. Klub faoliyati doirasidagi o'zaro hamkorlik amaldagi memorandum, qonunchilik hujjatlari hamda hamkor tashkilotlarning ichki hujjatlari asosida o'quv jarayonlariga halal bermagan holda talabalarning targ'ibot tadbirlari, qonunchilikni takomillashtirish, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash bo'yicha seminarlar, davra suhbatlarida ishtirokini ta'minlash, shuningdek tajribali sudyalar bilan interaktiv uchrashuvlar o'tkazish va ularning professional tajribasini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

4. Klub faoliyati ochiqlik, ixtiyoriylik, uzluksizlik, o'zaro hurmat va manfaat, sudlar faoliyatiga oid ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, ichki tartib-intizomga bo'ysunish, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni va o'quv intizomiga rioya qilish tamoyillariga asoslanadi.

## **2-bob. Klub faoliyatini tashkil etish**

5. Oliy sud o‘z huzurida oliy ta’lim muassasalarida kunduzgi va sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha tahsil olayotgan 2–4-kurs (magistratura bosqichi) talabalarining (keyingi o‘rinlarda – talabalar) o‘quv yili davomida o‘qishdan bo‘sh vaqtida tanishuv (malakaviy) amaliyoti va ish o‘rganishini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida klub tashkil etadi.

6. Klubning nomi:

o‘zbek tilida – “Bo‘lajak sud xodimlari” klubi, qisqartmasi – BSXK;

rus tilida – Клуб “Будущие работники судов”, qisqartmasi – КБРС;

ingliz tilida – “Future Court Staff” club, qisqartmasi – FCSC;

7. Klub o‘z faoliyatida mazkur nizom ilovasiga muvofiq namunadagi emblemadan foydalanadi.

8. Klub faoliyatining asosiy maqsadlari:

talabalarni sud organlari faoliyati va sudyalik kasbiga oid qonunchilikda belgilangan talablar bilan tanishtirish;

nazariy bilimlardan kelib chiqqan holda qonunni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash, nazariya va amaliyotning uzviyigini ta’minlash;

talabalarni kasbiy faoliyatiga mos ravishda vijdonli, halol, ochiq ko‘ngil, ishbilarmon hamda munosib mutaxassis sifatida tarbiyalash.

9. Klub faoliyatiga umumiy rahbarlik Oliy sud tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy sud va oliy ta’lim muassasaalari Klub faoliyatini doimiy ravishda muvofiqlashtirib borish maqsadida mas’ul xodimlarni belgilaydi.

## **3-bob. Klub a’zoligiga qabul qilish va undan chiqarish**

10. Oliy ta’lim muassasalari, qoida tariqasida, har o‘quv yili boshida oliy ta’lim muassasasi rektori nomiga yozilgan arizalar asosida Klubga a’zo bo‘lish istagini bildirgan talabalarining ro‘yxatini belgilangan tartibda shakllantirib, Oliy sudga yuboradi.

11. Taqdim etilgan ro‘yxatlar Oliy sud Kadrlar boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda o‘rganib chiqilganidan so‘ng, Klubga qabul qilingan talabalar ro‘yxati Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi hamda sudsiga taqsimotga ko‘ra yuboriladi.

12. Oliy sud va/yoki taqsimotga ko‘ra viloyat va unga tenglashtirilgan sudsarning mas’ul xodimlari tasdiqlangan ro‘yxatdagi Klub a’zolari bilan umumiylashtirish suhbatini o‘tkazadi. Suhbat davomida talabalarining bilim darajasi,

dunyoqarashi, sud organlari faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi aniqlanadi hamda sudsarda o‘rnatilgan tartib-qoidalar tushuntiriladi.

13. Talabalar quyidagi asoslarga ko‘ra Klub a’zoligidan chiqariladi:
  - o‘z xohishiga ko‘ra (yozgan arizasiga asosan);
  - o‘qishni tugatganda;
  - talabalar safidan chetlashtirilganda (rektorning buyrug‘i asosida);
  - amaliyot o‘tash davomida xizmatga doir va boshqa amaliyot o‘tash davrida olingan ma’lumotlarni oshkor etganda;
  - amaliyot o‘tash davomida ichki tartib-intizom va yurish-turish qoidalarini qo‘pol ravishda buzganda;
  - sog‘lig‘i holatiga ko‘ra (tibbiy ma’lumotnoma va tibbiy xulosa asosida);
  - jinoiy javobgarlikka tortilganda (sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga ko‘ra);
  - vafot etganda;
  - qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

14. Talabani Klub a’zoligidan chiqarish Oliy sud tomonidan tegishli oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

15. Talabani Klub a’zoligidan chiqarishga asos bo‘lgan holatlarning bartaraf etilganligi (sog‘lig‘i tiklanganda, talabalar safiga tiklanganda, Klub a’zoligiga qabul qilish haqida murojaat etganda va boshqalar) uni qayta Klub a’zoligiga qabul qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

#### **4-bob. Klub a’zolarining huquq va majburiyatları**

16. Klub a’zolari quyidagi huquqlarga ega:
  - o‘qishdan bo‘sh vaqtida va/yoki oliy ta’lim muassasasining taqsimotiga ko‘ra sudda amaliyot o‘tash va ish o‘rganish;
  - sudlar faoliyatiga oid ochiq ma’lumotlarni olish va ulardan o‘qish hamda tadqiqotlar davomida foydalаниш;
  - Klub doirasida tashkil etiladigan tanlovlar va boshqa tadbirlarda qatnashish;
  - sud faoliyatiga oid ichki hujjatlar bilan tanishish (cheklov o‘rnatilgan hujjatlar bundan mustasno);
  - amaliyot o‘tash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratilishini talab qilish.

Klub a’zosi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

17. Klub a’zolarining majburiyatları:
  - o‘quv yili davomida belgilangan tartibga asosan Oliy sud taqsimotiga ko‘ra sudda amaliyot o‘tash;

ish o‘rganish davrida amaliyot rahbarining topshiriqlarini bajarish; sud ichki tartib-intizomi, yurish-turish va odob-axloq qoidalariga qat’iy rivoja qilish.

Klub a’zosi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

### **5-bob. Klub a’zolarining javobgarligi**

18. Klub a’zolariga xizmat doirasida foydalanish uchun mo‘ljallangan hamda davlat yoki xizmat sirlarini tashkil qiluvchi ma’lumotlar bilan tanishish va ishslash taqiqlanadi.

Klub a’zolari sudlarning faoliyati va ishni tashkil etish bilan bog‘liq har qanday ma’lumotni oshkor qilganligi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

19. Klub a’zolarining amaliyot o‘tashi va ish o‘rganishi bilan bog‘liq faoliyati ularni oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonidagi majburiyatlaridan ozod etmaydi.

20. Alovida yutuqlarga erishgan hamda amaliyotni namunali o‘tagan Klub a’zolari rag‘batlantirilishi mumkin.

21. Mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish Oliy sud raisining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi  
Huzuridagi "Bo'lajak sud xodimlari"  
klubi to'g'risidagi nizomga  
ILOVA

## **"Bo'lajak sud xodimlari" klubi emblemasi TAVSIFI**

"Bo'lajak sud xodimlari" klubi emblemasi donolik, ulug'vorlik va yuksaklikni ifoda etuvchi oltin va oq ranglar ko'rinishida aks ettirilgan aylana tasmasi bo'lgan doiradan iborat.

Aylana tasmaning yuqori qismida oltin rangli bosh harflar bilan lotin alifbosida: "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI", pastki qismida: "BO'LAJAK SUD XODIMLARI KLUBI" deb yozilgan. Ushbu yozuvlar hurlik ma'nosini anglatuvchi sakkiz qirrali ikkita yulduz bilan ajratilgan.

O'zbek milliy naqshi tasvirlangan oltin rangdagi doira markazida poklikni anglatuvchi oq rangdagi qalqon tasvirlangan. Qalqonning ichida qonunni bildiruvchi kitobdan chiqayotgan odillik mezoni hisoblangan tarozi hamda ma'naviy kuch-qudratni anglatuvchi qilich aks ettirilgan. Doiraning pastki qismida oq rangdagi tasma tasvirlangan bo'lib, uning o'rtasida buyuk sarkarda Amir Temurning "KUCH ADOLATDADUR" degan iborasi tushirilgan. Yozuv ikki tomonidan g'alaba va tinchlik ramzi bo'lgan dafna novdalari bilan bezatilgan.

